PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ERTAKLAR OLAMIDAN LIDERLIK SARI: O‘QUVCHILARDA TASHABBUSKORLIK VA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna
Farg‘ona davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi
dotsenti (PhD)
E-mail: zn.ortiqova@gmail.com
ORCID: 0000-0002-2797-0512
Saidova Orzigul Asqarali qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
E-mail: saidovaorzigul16@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6392-5647
https://doi.org/10.5281/zenodo.24103400

Annotatsiya: Mazkur tezisda ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik, tashabbuskorlik va kreativlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Ertaklar o‘quvchining nafaqat tasavvur va tafakkurini boyituvchi, balki uning mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishi, muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarini izlash hamda o‘z fikrini erkin ifodalashiga yordam beruvchi samarali tarbiyaviy vosita sifatida qaraladi. Ertak qahramonlarining jasorati, qat’iyati, topqirligi, tashabbuskorligi va maqsad sari intilishi o‘quvchilar uchun ijobiy namuna vazifasini bajaradi. Ta’lim jarayonida ertaklardan ijodiy topshiriqlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, savol-javoblar va guruhli faoliyatlar asosida foydalanish o‘quvchilarning liderlik qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarda kreativ fikrlash, yangicha g‘oya ilgari surish va tashabbus ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: ertak, ertak qahramonlari, liderlik, tashabbuskorlik, kreativlik, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, pedagogik jarayon, ijodkorlik, kompetensiya.

Аннотация: В данной тезисной работе освещаются педагогические возможности развития у учащихся начальных классов качеств лидерства, инициативности и креативности посредством образов сказочных героев. Сказки рассматриваются не только как средство обогащения воображения и мышления учащихся, но и как эффективное воспитательное средство, способствующее развитию самостоятельного мышления, принятию решений, поиску путей выхода из проблемных ситуаций и свободному выражению собственного мнения. Мужество, решительность, находчивость, инициативность и стремление к достижению цели сказочных героев служат положительным примером для учащихся. Использование сказок в образовательном процессе посредством творческих заданий, ролевых игр, проблемных ситуаций, вопросов и ответов, а также групповой деятельности создаёт условия для проявления лидерских способностей учащихся. Вместе с тем такой подход способствует формированию у

учащихся навыков креативного мышления, выдвижения новых идей, самостоятельного принятия решений и проявления инициативы.

Abstract: This thesis highlights the pedagogical potential of developing leadership, initiative, and creativity among primary school students through the use of fairy-tale characters. Fairy tales are considered not only as a means of enriching students' imagination and thinking, but also as an effective educational tool that contributes to independent thinking, decision-making, finding solutions to problematic situations, and expressing personal opinions freely. The courage, determination, resourcefulness, initiative, and goal-oriented behavior of fairy-tale characters serve as positive examples for students. The use of fairy tales in the educational process through creative tasks, role-playing activities, problem-solving situations, question-and-answer activities, and group work creates opportunities for students to demonstrate their leadership abilities. At the same time, this approach contributes to developing students' creative thinking, ability to propose new ideas, make independent decisions, and show initiative.

KIRISH. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi, ijodiy yondashuvi va jamoada faol ishtirok etishini ta'minlash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ushbu sifatlarni shakllantirish o'quvchining kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sifatlarni rivojlantirishda ertaklarning tarbiyaviy imkoniyatlari keng. Ertak qahramonlarining jasorati, topqirligi, qat'iyati va qiyinchiliklarni yengib o'tishi o'quvchilarga ijobiy namuna bo'la oladi. Qahramonlar xatti-harakatini tahlil qilish, ularning o'rnida o'zini tasavvur qilish va turli vaziyatlarga ijodiy yechim topish orqali o'quvchilarda liderlik, tashabbuskorlik va kreativlik ko'nikmalari rivojlanadi. Shu jihatdan, ertaklarni ta'lim jarayonida kreativ topshiriqlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va guruhli faoliyatlar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning faolligini oshirish hamda ularni mustaqil fikrlashga undashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, kreativlik va liderlik sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlari va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi orqali ushbu sifatlarni rivojlantirish mumkin. Tadqiqotning maqsadi ertaklardan samarali pedagogik vosita sifatida foydalanish orqali o'quvchilarda liderlik, tashabbuskorlik va kreativlikni rivojlantirish usullarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM

Ertaklar boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashi, tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishda muhim vositalardan biridir. Ertak qahramonlari orqali o'quvchi yaxshilik va yomonlik, jasorat va qo'rqoqlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi tushunchalarni anglaydi. Ayniqsa, qahramonlarning qiyin vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi o'quvchida faol fikrlash va o'z xatti-harakatiga mas'uliyat bilan qarash ko'nikmasini shakllantiradi. Ertak qahramonlari obrazlari o'quvchilarda liderlik sifatlarini rivojlantirish uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Chunki liderlik faqat boshqalarga yetakchilik qilish emas, balki mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, to'g'ri qaror qabul qilish, tashabbus ko'rsatish va jamoa bilan hamkorlik qila olish kabi sifatlarni ham o'z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha,

aynan ertak qahramonlarining muammoli vaziyatlarda o‘z yo‘lini topishi bolaga “men ham uddalay olaman” degan ishonchni shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqotlarda ham ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ta’kidlangan [1]. Bu fikrni amaliy jihatdan davom ettirib, dars jarayonida o‘quvchilarga “Siz qahramon o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz?” yoki “Qahramonga qanday maslahat bergan bo‘lardingiz?” kabi savollar berish maqsadga muvofiqdir. Tashabbuskorlikni rivojlantirish uchun o‘quvchiga tayyor javobni berish emas, balki uni mustaqil yechim izlashga yo‘naltirish zarur. Masalan, ertakning yakunini o‘zgartirish, voqeani davom ettirish, yangi qahramon yaratish yoki mavjud qahramonning muammosiga boshqa yechim taklif qilish kabi topshiriqlar o‘quvchini faol harakat qilishga undaydi. Bunday faoliyat davomida o‘quvchi o‘z fikrini ilgari suradi va o‘z g‘oyasining natijasini tasavvur qiladi. Bu esa tashabbuskorlikning muhim ko‘rinishidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda ertak va hikoyalardan foydalanish samarali ekanligi ilmiy tadqiqotlarda ham qayd etilgan [2]. Bizningcha, kreativlikni shakllantirishda eng muhim jihat - bolaga “bitta to‘g‘ri javob” bilan cheklanib qolmaslik imkonini berishdir. Masalan, bir qahramonning muammosiga o‘quvchilar turli xil yechimlar taklif qilishi mumkin. O‘qituvchi esa har bir yangi va asoslangan fikrni rag‘batlantirishi lozim.

Shuningdek, ertak asosida rolli o‘yinlar tashkil etish ham samarali usullardan biridir. Bunda o‘quvchilar qahramonlarning rollarini ijro etish orqali voqeani nafaqat tinglaydi, balki uni his qiladi va mustaqil ravishda talqin qiladi. Ertakni sahnalashtirish jarayonida o‘quvchi o‘z fikrini ifodalash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, vazifani taqsimlash va jamoaviy qaror qabul qilishni o‘rganadi. Bu jarayon liderlik va tashabbuskorlikning tabiiy ravishda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ertaklardan foydalanishda kreativ topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi [3]. Shu sababli darslarda “Ertakni davom ettir”, “Qahramonga yordam ber”, “Boshqa yakun top”, “Agar men qahramon bo‘lganimda...” kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bunday topshiriqlar oddiy o‘qish faoliyatini ijodiy jarayonga aylantiradi. Umuman olganda, ertak qahramonlari o‘quvchi uchun shunchaki badiiy obraz emas, balki shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Ertak mazmunini kreativ topshiriqlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va guruhli faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda liderlik, tashabbuskorlik va kreativlik sifatlarini birgalikda rivojlantirish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ertak qahramonlari obrazlaridan ta’lim jarayonida foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ertaklardagi turli muammoli vaziyatlar o‘quvchilarni qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, ularga baho berish va o‘z fikrini bildirishga undaydi. Dars jarayonida “Siz qahramon o‘rnida bo‘lganingizda nima qilardingiz?”, “Qahramonga qanday maslahat bergan bo‘lardingiz?” kabi savollardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini shakllantirishga yordam beradi. Bir vaziyatga turli yechimlarning taklif qilinishi esa kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Ertak asosida tashkil etilgan rolli o‘yinlar va guruhli faoliyatlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Bunday mashg‘ulotlarda ular o‘z fikrini erkin ifodalash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, vazifalarni taqsimlash va qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda liderlik va tashabbuskorlikka xos sifatlar namoyon bo‘ladi. Shuningdek,

ertakning yakunini o‘zgartirish, voqeani davom ettirish, yangi qahramon yaratish kabi ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va yangi g‘oyalar ilgari surishiga imkon beradi. O‘qituvchining bunday fikrlarni qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchilarning ijodiy faolligini yanada kuchaytiradi. Ertaklarni ijodiy topshiriqlar, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, kreativlik va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, ertak qahramonlari obrazlari orqali o‘quvchilarda axloqiy tanlovni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va o‘z qarashlarini asoslash ko‘nikmalarini ham shakllantirish mumkin. Masalan, ertakdagi ijobiy va salbiy qahramonlarning xatti-harakatlarini taqqoslash orqali o‘quvchilar yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, do‘stlik va xiyonat kabi tushunchalarning mazmunini anglaydilar. Bunda o‘qituvchi tayyor xulosalarni berishdan ko‘ra, o‘quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga yo‘naltirishi muhimdir.Shuningdek, ertak qahramonlari asosida tashkil etilgan kichik loyihalar o‘quvchilarning izlanish, rejalashtirish va natijalarni taqdim etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, guruhlarga muayyan qahramonning ijobiy fazilatlarini aniqlash, uning obrazini zamonaviy hayot bilan bog‘lash yoki qahramon ishtirokida yangi voqea yaratish vazifasi berilishi mumkin. Bunday faoliyat davomida o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadilar, muqobil g‘oyalarni ilgari suradilar va umumiy qarorga kelishga intiladilar. Ta’lim jarayonida ertak qahramonlaridan foydalanishning samaradorligi o‘quvchilarning individual xususiyatlari, yosh imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olishga ham bog‘liq. Shu sababli topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish, har bir o‘quvchining ijodiy yondashuvini rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir. Natijada ertak obrazlari nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik vositaga aylanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ertaklar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy va ijodiy rivojlanishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ertak qahramonlarining jasorati, topqirligi, qat’iyati va maqsad sari intilishi o‘quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ertaklarni ijodiy topshiriqlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va guruhli faoliyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi aniqlandi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbus ko‘rsatish, yangi g‘oyalar ilgari surish, qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, ertak qahramonlarini tahlil qilish va ularning xatti-harakatlariga baho berish o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifodalashiga imkon beradi. Shu sababli ertaklardan ta’lim jarayonida maqsadli va ijodiy foydalanish o‘quvchilarda liderlik, tashabbuskorlik va kreativlik sifatlarini shakllantirishning samarali usullaridan biri sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Ortiqova Z., Tojiyeva D. Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2025. – 3-jild, 11-son. – DOI: 10.5281/zenodo.17640978. URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.17640978
2. Ravshanova R.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini o‘stirishda ertak va hikoyalarning o‘rni // Modern Science and Research. – 2025. – B. 851–854. – DOI: 10.5281/zenodo.14953489. URL: https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70051
3. Abduraxmonova O‘.Sh. O‘qish savodxonligi darsida boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatini shakllantirish // Innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot. – 2025. – B. 48–50. – DOI: 10.5281/zenodo.15362242. URL: https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/86175
4. Kuchkova N., Aslonova O.P. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rag‘batlantirishning ahamiyati // Modern Science and Research. – 2024. – 1-jild, 9-son. – B. 769–773. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.science-research.47885. URL: https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48055
5. Yusupova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda kreativlikni rivojlantirishning nazariy asoslari // Science Shine: International Scientific Journal. – 2024. URL: https://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/article/view/655